



Dual ta'lim sharoitida kasbiy-amaliy kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslari

Matrazov Kuranmurat Salayevich –

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi

Proporsional ta'limni rivojlantirish instituti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: matnazarovkuranmurat@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-1022-2618>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston kasbiy ta'lim tizimida dual ta'lim modelini joriy etishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda dual ta'limning tarkibiy xususiyatlari, pedagogik tamoyillari, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda o'quvchilarda kasbiy-amaliy kompetensiyani shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Dual ta'limni joriy etish jarayoni mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, mehnat bozori talablari va kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg'un holda ko'rib chiqilgan.

Tadqiqotning maqsadi dual ta'lim tizimining nazariy asoslarini aniqlash, kompetensiyaviy yondashuvga oid ilmiy qarashlarni tahlil qilish hamda o'quvchilarning kasbiy-amaliy tayyorgarligini oshiruvchi omillarni belgilashdan iborat. Metodologik asos sifatida tizimli tahlil, ilmiy manbalarni taqqoslash, pedagogik konsepsiyalarni umumlashtirish va kompetensiyalarni modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari dual ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligi o'quvchilarda kasbiy-amaliy kompetensiyaning shakllanishini jadallashtirishini ko'rsatadi. Shuningdek, dual tizim kasbiy moslashuvchanlikni, ishlab chiqarishga tayyorgarlikni, texnologik o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini va bandlik ko'rsatkichlarini oshiruvchi samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Olingan natijalar dual ta'lim mexanizmlarini takomillashtirish, metodik ta'minotni yangilash, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va korxonalar bilan hamkorlikni kuchaytirishda amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot kasbiy ta'lim muassasalarida dual ta'limni optimallashtirish va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqishda foydali tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: dual ta'lim; kasbiy-amaliy kompetensiya; kompetentlik; kompetensiyaviy yondashuv; ishlab chiqarish amaliyoti; kasbiy ta'lim; integratsiya; mehnat bozori.

Теоретические основы формирования профессионально-практической компетентности в условиях дуального обучения

Аннотация. В данной статье проведён глубокий анализ теоретико-методологических основ внедрения дуальной модели обучения в систему профессионального образования Узбекистана. В исследовании раскрываются содержательные характеристики дуального обучения, его педагогические принципы, механизмы интеграции образования и производства, а также роль дуального подхода в формировании профессионально-практической компетентности учащихся. Процесс внедрения дуальной системы в образовательную среду Узбекистана рассматривается в контексте проводимых социально-экономических реформ, требований рынка труда и современных компетентностных подходов.

Цель исследования – определить теоретические основания дуальной системы обучения, проанализировать научные взгляды, связанные с компетентностным подходом, и выявить факторы, способствующие повышению профессионально-практической подготовки учащихся.

В качестве методологической базы использованы системный анализ, сопоставление научно-теоретических источников, обобщение педагогических концепций и моделирование компетенций. Результаты исследования показывают, что интеграция теории и практики в рамках дуальной модели существенно ускоряет формирование профессионально-практических компетенций учащихся. Кроме того, дуальная система выступает эффективным механизмом, повышающим профессиональную адаптивность, готовность к производственным процессам, способность к технологическим изменениям и показатели трудоустройства выпускников.

Полученные научные результаты обладают практической значимостью для совершенствования механизмов дуального обучения в системе профессионального образования Узбекистана, обновления методического обеспечения, повышения квалификации педагогических кадров и укрепления сотрудничества с производственными предприятиями. Практическая ценность исследования заключается в разработке научно обоснованных рекомендаций, направленных на оптимизацию дуального образования, создание образовательных программ на основе компетентностного подхода и повышение уровня практической подготовки учащихся.

Ключевые слова: дуальное обучение; профессионально-практическая компетентность; компетентность; компетентностный подход; производственная практика; профессиональное образование; интеграция; рынок труда.

Theoretical foundations for developing professional-practical competence in the context of dual education

Annotation. *This article provides an in-depth analysis of the theoretical and methodological foundations for implementing the dual education model in the vocational education system of Uzbekistan. The study examines the key characteristics of dual education, its pedagogical principles, mechanisms for integrating education with production, and the role of the dual approach in developing students' professional and practical competencies. The implementation of the dual system in Uzbekistan's educational environment is considered in the context of ongoing socio-economic reforms, labor market demands, and modern competency-based approaches.*

The purpose of the study is to identify the theoretical foundations of the dual education system, analyze scientific perspectives related to the competency-based approach, and determine factors that contribute to improving students' professional and practical training.

The methodological framework includes systemic analysis, comparison of scientific and theoretical sources, generalization of pedagogical concepts, and competency modeling. The research findings demonstrate that the integration of theory and practice within the dual education model significantly accelerates the formation of students' professional and practical competencies. In addition, the dual system serves as an effective mechanism for enhancing professional adaptability, readiness for production processes, the ability to respond to technological changes, and graduate employment rates.

The obtained results have practical significance for improving dual education mechanisms in the vocational education system of Uzbekistan, updating methodological support, enhancing the professional development of teaching staff, and strengthening cooperation with industrial enterprises. The practical value of the study lies in the development of scientifically grounded recommendations aimed at optimizing dual education, designing competency-based educational programs, and improving the level of students' practical training.

Keywords: *dual education; professional-practical competence; competency; competency-based approach; industrial practice; vocational education; integration; labour market.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, texnologik innovatsiyalarning jadallashuvi va mehnat bozorida yuz berayotgan tizimli o'zgarishlar ta'lim tizimi oldiga sifat jihatidan yangi vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, ishlab chiqarish sohalarida yuqori darajadagi kasbiy-amaliy tayyorgarlikka ega, moslashuvchan va raqobatbardosh mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi kasbiy ta'lim mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Bu jarayonda o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashga ixtisoslashgan kasbiy ta'lim muassasalari faoliyatini ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish, o'quvchilarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish va ularning real mehnat sharoitlariga moslashuvchanligini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar aynan ushbu ehtiyojlardan kelib chiqmoqda. Mehnat bozorining

dinamik rivojlanishi, yangi kasb va mutaxassisliklarning paydo bo'lishi, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi hamda ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi ta'limning mazmuni, shakli va metodlarini yangilashni taqozo etmoqda. Mamlakatda qabul qilinayotgan strategik dasturlar va normativ-huquqiy hujjatlar kasbiy ta'limni xalqaro tajribalar asosida rivojlantirish, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish hamda zamonaviy ta'lim modellarini joriy etishga yo'naltirilgan.

Mazkur jarayonda dual ta'lim tizimi O'zbekiston sharoitida istiqbolli va samarali model sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Dual ta'lim nazariy bilimlarni ta'lim muassasalarida, kasbiy-amaliy kompetensiyalarni esa bevosita ishlab chiqarish korxonalarida shakllantirishga asoslangan bo'lib, o'quv jarayonining ikki muhitda uyg'unlashgan holda tashkil etilishini nazarda tutadi. Ushbu model o'quvchilarning kasbiy bilimlarini real mehnat faoliyati bilan mustahkamlash, ishlab chiqarish jarayonlariga moslashuvchanligini oshirish va bitiruvchilarning bandlik darajasini yaxshilash imkonini beradi.

Dual ta'lim tizimida asosiy e'tibor o'quvchilarda kasbiy-amaliy kompetensiyani shakllantirishga qaratiladi. Kasbiy-amaliy kompetensiya o'quvchining nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda samarali qo'llay olishi, texnologik jarayonlarda ishtirok etishi, kasbiy vazifalarni mustaqil va mas'uliyat bilan bajarish qobiliyatini ifodalaydi. Shu bois kompetensiyaviy yondashuv dual ta'lim tizimining metodologik asosi sifatida qaraladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, unda dual ta'lim sharoitida kasbiy-amaliy kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi, kompetensiyaviy yondashuvning mazmuni ochib beriladi hamda ushbu jarayonni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi pedagogik omillar aniqlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Dual ta'lim tizimi va kasbiy-amaliy kompetensiyani shakllantirish masalalari xorijiy va mahalliy pedagogik tadqiqotlarda keng yoritilgan. Xususan, Germaniya, Shveysariya va Avstriya kabi davlatlarda shakllangan dual ta'lim modeli kasbiy ta'limning eng samarali shakllaridan biri sifatida e'tirof etilib, bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida muvaffaqiyat bilan qo'llanilmoqda. Xorijiy tadqiqotlarda dual ta'limning asosiy ustunligi sifatida nazariya va amaliyotning uzviy birligi, bitiruvchilarning mehnat bozoriga yuqori darajada moslashganligi va ishga joylashish ko'rsatkichlarining yuqoriligi ta'kidlanadi.

G'arb olimlarining ilmiy ishlarida dual ta'lim tizimi ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikning institutsional modeli sifatida talqin qilinib, unda korxonalar ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida ishtirok etishi alohida qayd etiladi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv dual ta'limning nazariy poydevori sifatida qaralib, kasbiy kompetensiyalarni real ishlab chiqarish sharoitida shakllantirish uning asosiy samaradorlik omili ekanligi asoslab beriladi.

O'zbekistonlik pedagog olimlarning tadqiqotlarida ham dual ta'lim masalalari tobora dolzarb ilmiy muammoga aylanib bormoqda. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlarda kasbiy ta'lim tizimida dual yondashuvni joriy etishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari, o'quv dasturlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqish, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish masalalari keng tahlil qilingan.

Mahalliy tadqiqotlarda kasbiy-amaliy kompetensiya o'quvchining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan bir qatorda mustaqil fikrlash, mas'uliyat, tashabbuskorlik va texnologik yangiliklarga moslashish qobiliyatlarini o'zida mujassam etuvchi kompleks sifat sifatida talqin etiladi. Olimlar dual ta'lim tizimi aynan ushbu kompetensiyalarni shakllantirish uchun eng qulay pedagogik muhit yaratishini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, adabiyotlarda xalqaro baholash standartlari, xususan, WorldSkills talablarining dual ta'lim tizimidagi ahamiyati alohida ko'rsatib o'tiladi. Ushbu standartlar

kasbiy-amaliy kompetensiyani aniq mezonlar asosida baholash, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini xalqaro talablarga moslashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda dual ta'lim tizimining cheklovlari — korxonalar imkoniyatlarining turlicha bo'lishi, tor ixtisoslashuv va o'quvchilar soni bilan bog'liq muammolar ham qayd etilgan. Biroq ushbu holatlar dual ta'limning ustunliklarini inkor etmaydi, balki uni takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, dual ta'lim tizimi kasbiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirish, o'quvchilarda kasbiy-amaliy kompetensiyani shakllantirish va ta'limning mehnat bozori bilan uyg'unligini ta'minlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dual ta'lim sharoitida kasbiy-amaliy kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslarini aniqlash va ilmiy jihatdan tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, unda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi dual ta'lim tizimining mohiyati, uning tarkibiy tuzilishi va pedagogik imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiluvchi ilmiy-uslubiy asoslar majmuasiga tayangan holda ishlab chiqildi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv asosiy metodologik tamoyil sifatida tanlandi. Ushbu yondashuv dual ta'limni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki asosiy muhit ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonasi doirasida yaxlit pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Tizimli tahlil orqali dual tizimning tarkibiy elementlari, ularning o'zaro aloqadorligi va kasbiy-amaliy kompetensiyani shakllantirishdagi roli aniqlashtirildi.

Shuningdek, tadqiqotda ilmiy-nazariy manbalarni tahlil va sintez qilish usullaridan foydalanildi. Xususan, A.Shelten tomonidan ilgari surilgan dual ta'limning alohida belgilari, Y.Myunxning kasbiy ta'lim dual tizimining tarkibiy tuzilishiga oid konseptual qarashlari, shuningdek, xorijiy va mahalliy pedagog olimlarning kompetensiyaviy yondashuvga doir ilmiy ishlari qiyosiy tahlil qilindi. Bu esa dual ta'limning metodologik mohiyatini aniqlash va uning nazariy poydevorini asoslashga imkon yaratdi.

Tadqiqot jarayonida modellashtirish usuli qo'llanilib, dual ta'lim sharoitida kasbiy-amaliy kompetensiyaning shakllanish jarayoni nazariy model sifatida tasavvur qilindi. Mazkur modelda o'quvchi faoliyatining nazariy va amaliy komponentlari, ta'lim muassasasi hamda ishlab chiqarish subyektlarining pedagogik hamkorligi, shuningdek, kompetensiyaning tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqildi.

Bundan tashqari, taqqoslash va umumlashtirish usullari orqali dual ta'limning an'anaviy kasbiy ta'lim shakllaridan farqli jihatlari, ustunliklari va cheklovlari aniqlanib, ularning kasbiy-amaliy kompetensiyani shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari baholandi. Tadqiqot metodologiyasi kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga asoslangan holda ishlab chiqildi va ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishga yo'naltirildi.


NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari dual ta'lim tizimi kasbiy-amaliy kompetensiyani shakllantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. A.Shelten tomonidan ajratilgan dual tizimning muhim belgilariga muvofiq, ta'lim jarayonining ikki muhitda ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonasida amalga oshirilishi o'quvchilarda nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligini ta'minlaydi. Bu holat kasbiy bilimlarning abstrakt darajada qolib ketmasdan, real mehnat faoliyati orqali mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Dual tizimda ishlab chiqarishda olib boriladigan o'qitish asosan kasbiy-amaliy xarakterga ega bo'lsa, kasb-hunar maktablarida ta'lim ko'proq kasbiy-nazariy yo'nalishda tashkil etiladi. Biroq zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi ushbu farqning tobora yo'qolib borishiga olib kelmoqda. Natijada nazariy ta'limning o'zi ham kompleks va


dinamik tus olib, o'quvchilardan bilimlarni tezkor amaliy qo'llash, tahlil qilish va teskari aloqani amalga oshirishni talab qilmoqda.

Y.Myunx tomonidan taklif etilgan dual ta'lim tizimining tarkibiy tuzilishi asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, dual ta'lim ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi kelishilgan aloqadorlikni yagona metodologik asosda tashkil etishga imkon beradi. Bu esa o'quvchilarning kasbiy moslashuvchanligini oshirib, ularni ishlab chiqarish jarayonlarining to'laqonli subyektiga aylantiradi.

Kasbiy ta'lim dual tizimining tarkibiy tuzilishi Y.Myunx bo'yicha



Tadqiqot davomida dual ta'limning afzalliklari ilmiy jihatdan asoslandi. Xususan, o'qitish jarayonida nazariy ta'limning taxminan 40 foizi ta'lim muassasalarida, amaliy tayyorgarlikning esa 60 foizdan ortig'i ishlab chiqarish korxonalarida amalga oshirilishi o'quvchilarning kasbiy malakasini tez va samarali shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Ushbu nisbat o'quvchilarning kasbga oid ehtiyoj va qiziqishlarini real mehnat faoliyati orqali qondirish imkonini beradi.



Shuningdek, dual tizimda korxonalarining ta'lim jarayoniga faol jalb etilishi ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirib, ta'limni moliyalashtirish mexanizmlarini yengillashtirishi aniqlangan. Bu holat nafaqat ta'lim muassasalari, balki davlat va nodavlat sektorlar uchun ham iqtisodiy jihatdan samarali model ekanligini ko'rsatadi. Eng muhimi, dual ta'lim o'rta bo'g'in malakali kadrlarning bandlik darajasini sezilarli oshirishga xizmat qiladi.

Muhokamalar natijasida shunday xulosa qilish mumkinki, dual ta'lim tizimi kasbiy-amaliy kompetensiyani shakllantirishda an'anaviy ta'lim shakllariga nisbatan ustun pedagogik imkoniyatlarga ega. Shu bilan birga, uni muayyan soha va ta'lim darajasiga moslashtirish, korxonalarining moddiy-texnik imkoniyatlarini hisobga olish va metodik ta'minotni takomillashtirish zarurati ham mavjud. Mazkur omillar dual ta'lim tizimini yanada samarali rivojlantirish uchun muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlar sifatida baholanadi.

XULOSA

Dual ta'lim tizimi zamonaviy kasbiy ta'limning eng samarali, amaliyotga yo'naltirilgan va ishlab chiqarish bilan uzviy bog'langan modeli sifatida o'zini namoyon qilmoqda. Bugungi global mehnat bozori sharoitida mutaxassisdan nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lish, balki real ish jarayonida o'z kasbiy faoliyatini mustaqil tashkil eta olish, turli ishlab chiqarish vaziyatlariga moslashish, texnologik jarayonlarni chuqur anglash, muammoli holatlarda tezkor qaror qabul qilish kabi ko'nikmalar talab etiladi. Dual ta'lim aynan mana shu kasbiy-amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgani bilan o'zining ustuvor ahamiyatini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot shuni ko'rsatdiki, dual ta'lim tizimi o'quvchining o'quv motivatsiyasini oshiradi, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat orqali mustahkamlaydi, real mehnat muhitiga moslashuvchanlikni kuchaytiradi va o'quvchining kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi. Tizimning asosiy yutug'i o'quv jarayonining ikki muhitda uyg'un amalga oshirilishidir. Bu esa o'quvchini real ish sharoitiga bo'lajak mutaxassis sifatida tayyorlaydi, ayni paytda ta'lim muassasasining nazariy poydevorini mustahkamlaydi.

O'quvchilarda kasbiy-amaliy kompetensiyaning shakllanishi dual tizimning asosiy natijasi bo'lib, bunda nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalar, balki shaxsning mas'uliyati, tashabbuskorligi, muloqot madaniyati, jamoa bilan ishlash qobiliyati, kasbiy qarorlar qabul qilish salohiyati kabi shaxsiy sifatlar ham rivojlanadi. Shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarining ta'lim jarayoniga jalb qilinishi ularning o'z ehtiyojlariga mos malakali kadrlarni tayyorlashda bevosita ishtirok etishini ta'minlaydi.

Dual ta'lim tizimi ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish orqali iqtisodiyotning o'rta bo'g'in mutaxassislariga bo'lgan talabini samarali qondiradi. Bitiruvchilarning bandlik darajasi oshadi, kasbiy moslashuvchanligi mustahkamlanadi va ular mehnat bozoriga tayyor holatda chiqadi. Shu bilan birga, tizimning ayrim cheklovlari tor ixtisoslik, korxona imkoniyatlariga bog'liqlik, logistika masalalari uni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Shu asosda aytish mumkinki, dual ta'lim O'zbekistonning kasbiy ta'lim tizimi uchun muhim strategik yo'nalish bo'lib, u iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, mehnat bozori ehtiyojlarini qondirish va malakali kadrlarga bo'lgan talabni ta'minlashga xizmat qiladi. Kelgusida dual tizimni kengaytirish, uning normativ-huquqiy bazasini mustahkamlash, ta'lim va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, metodik ta'minotni modernizatsiya qilish, o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish kabi vazifalar dolzarbligicha qoladi.

Natijada, dual ta'lim nafaqat o'quvchining kasbiy malakasini shakllantiruvchi, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taruvchi innovatsion ta'lim modeli sifatida o'z ahamiyatini tobora oshirib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida PF-158-son Farmoni. – Toshkent, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risida PF-5812-son Farmoni. – Toshkent, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Ta'lim tizimini rivojlantirishga doir 163-son Qarori. – T:, 2021.
4. R.X.Djuraev Kasbiy ta'limning nazariy asoslari. – T: Fan va texnologiya nashriyoti, 2018.
5. A.R.Xodjaboyev Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning pedagogik asoslari. – T: O'qituvchi nashriyoti, 2017.
6. N.A.Muslimov Kasb ta'limida kompetensiyaviy yondashuv. – T: Innovatsiya nashriyoti, 2019.
7. Q.T.Olimov Kasb-hunar ta'limida o'quv-uslubiy ta'minotni takomillashtirish. – T: Fan nashriyoti, 2016.
8. R.K.Choriyev Dual ta'lim tizimining metodologik asoslari. – T: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.
9. Sh.S.Sharipov O'qituvchilar ijodkorligini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T: Fan va texnologiya nashriyoti, 2015.
10. J.A.Hamidov Axborot texnologiyalari asosida kasbiy fanlarni o'qitish. – T: O'qituvchi nashriyoti, 2021.
11. D.O.Himmataliyev Kasb ta'limida integrativ yondashuv. – T: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2018.
12. O.A.Qo'ysinov Kompetensiyalarning tarkibiy tuzilishi va ularni shakllantirish. – T: Fan nashriyoti, 2017.
13. E.F.Zeer. Professional Pedagogy. – Moscow: Akademiya Publishing House, 2014.
14. I.A.Zimnyaya Psychological Foundations of Competence and Competency. – Moscow: Logos Publishing House, 2012.